“Chery qahramoni uchun ism tanlash bo‘yicha fototanlov – reklama aksiyasi to‘g‘risida”

NIZOM

1. UMUMIY QOIDALAR

1. Aksiyaning nomi: “Chery qahramoni uchun ism tanlash bo‘yicha fototanlov” (bundan keyin matnda – “Aksiya”).
2. Aksiya rag‘batlantiruvchi lotereya hisoblanmaydi, unda ishtirok etish Ishtirokchilar tomonidan to‘lov to‘lash bilan bog‘liq emas va tavakkalchilikka asoslanmagan, ushbu Aksiyaga O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 983, 984-moddalarida belgilangan me’yorlar tatbiq etilmaydi, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2002-yil 15-noyabrdagi 396-sonli qarori bilan tasdiqlangan Lotereya o‘yinlarini tashkil etish va o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi nizomda nazarda tutilgan tartib tatbiq etilmaydi.
3. Aksiyani o‘tkazish tartibi Aksiya ishtirokchilari tomonidan to‘lov to‘lash bilan bog‘liq emas, Aksiyaning sovrin jamg‘armasi esa faqat “ROODELL” MChJ (bundan keyin matnda – “Tashkilotchi”) mablag‘lari hisobidan shakllantiriladi.
4. Aksiya ishtirokchisi – 18 yoshga to‘lgan, muomalaga layoqatli, O‘zbekiston Respublikasi rezidenti bo‘lgan, ushbu Tartibda ko‘rsatilgan zarur harakatlarni amalga oshirgan jismoniy shaxs (bundan keyin matnda – “Ishtirokchi”). Aksiyani o‘tkazishda ishtirok etayotgan Tashkilotchi, Chery rasmiy dilerlik markazlari, reklama agentliklari xodimlari, shuningdek, ularning oila a’zolari ishtirok etishlari mumkin emas.
5. Aksiyada ishtirok etish majburiy emas va ixtiyoriy xarakterga ega.
6. Aksiya tashkilotchisi: “ROODELL” MChJ.
7. Tashkilotchining rekvizitlari: Manzil: Toshkent shahri, Sergeli tumani, Yangi Sergeli ko‘chasi, 7-uy. h/r: 20208000204976017001 “Asakabank” AJ Bosh ofisi, MFO: 00873, STIR: 207 151 159, QQS to‘lovchining ro‘yxatga olish kodi: 326070022593, IFUT: 45111.
8. Aksiya o‘tkaziladigan hudud: Tashkent City Mall savdo markazi, O‘zbekiston Respublikasi.
9. Aksiyani o‘tkazish davri (ishlarni e’lon qilish): 2026-yil 17-noyabrdan 2026-yil 16-dekabrgacha.
10. Natijalarni sarhisob qilish (g‘oliblarni aniqlash) sanasi: 2026-yil 18-dekabr.
11. Sovrinlarni tantanali topshirish sanasi: 2026-yil 25-dekabrgacha.
12. Tashkilotchi mazkur tartib shartlarida ko‘rsatilgan usulda e’lon qilish sharti bilan Aksiya shartlariga o‘zgartirishlar kiritish huquqini o‘zida saqlab qoladi.

2. AKSIYANING SOVRIN JAMG‘ARMASI

13. Aksiyaning sovrin jamg‘armasi: shahar tashqarisida joylashgan “Green hills resort” dam olish maskaniga 3 (uch) ta yo‘llanma (har bir yo‘llanma 4 kishigacha bo‘lgan guruh/oila uchun mo‘ljallangan). Mazkur yo‘llanmalar 3 (uch) ta nominatsiya bo‘yicha taqsimlanadi: “Eng samimiy oilaviy kadr”, “Mushuk uchun eng o‘zgacha ism”, “Eng quvnoq fotosurat”.
14. Tashkilotchining sovrinlarni berish bo‘yicha javobgarligi faqat yuqorida ko‘rsatilgan sovrinlar soni bilan cheklangan.
15. Tashkilotchi Sovrinlar ro‘yxatini o‘zgartirish / kengaytirish huquqiga ega.

3. AKSIYANI O‘TKAZISH SHARTLARI VA TARTIBI

16. Aksiya ishtirokchisiga aylanish uchun quyidagilar zarur:
16.1. Tashkilotchining Instagram’dagi @cheryuzbekistan rasmiy akkauntiga obuna bo‘lish.
16.2. Tashkent City Mall savdo markazidagi Chery maxsus ekspozitsiyasi yonida (oila yoki do‘stlar bilan) birgalikda kreativ fotosuratga tushish. Kadrda quyidagilar bo‘lishi shart: Ishtirokchi (va/yoki uning yaqinlari), Chery mushugi va Chery avtomobili.
16.3. Ushbu fotosuratni o‘zining shaxsiy ochiq Instagram akkaunti tasmasida joylashtirish.
16.4. Postning tavsifida Chery mushugi uchun o‘zgacha ism taklif qilish.
16.5. Postga @cheryuzbekistan faol belgisi va #withCherywithLove xeshtegini qo‘shish.
16.6. Aksiya yakunlari rasman e’lon qilinmaguncha profilni ochiq saqlash va tanlov bo‘yicha postni o‘chirmaslik.
17. Aksiya Ishtirokchilari tomonidan barcha shartlarning bajarilishini nazorat qilish “ROODELL” MChJ bosh direktorining buyrug‘iga muvofiq xodimlar orasidan tashkil etiladigan ishchi guruh tomonidan amalga oshiriladi.
18. Aksiya yakunlarini chiqarish vaqti va joyi to‘g‘risidagi ma’lumotlar ushbu Tartibga muvofiq e’lon qilinadi.
19. Har bir Ishtirokchi Aksiya shartlari, Aksiya ishtirokchilarining ro‘yxati, yakuniy natijalarni chiqarish joyi va vaqti haqidagi ma’lumotlar bilan o‘zi uchun qulay bo‘lgan usulda mustaqil ravishda tanishadi.

4. AKSIYA G‘OLIBLARINI ANIQLASH TARTIBI

20. G‘oliblarni aniqlash Tashkilotchining hakamlar hay’ati (uning tarkibi ichki buyruq bilan tasdiqlanadi) tomonidan faqat aksiyani o‘tkazish muddati davomida ushbu Nizomda ko‘rsatilgan shartlarni bajargan Ishtirokchilar orasidan o‘tkaziladi. G‘oliblar taklif etilgan ismning kreativligi va mavzuga (quvonch, oila, do‘stlik) mosligi bo‘yicha aniqlanadi.
21. Aksiyada ishtirok etish deganda, barcha ishtirokchilarning ushbu shartlarga roziligi, shuningdek, ularning ismlari, familiyalari, fotosuratlari Tashkilotchi tomonidan reklama maqsadlarida, shu jumladan OAVda e’lon qilishda haq to‘lamasdan foydalanilishi mumkinligini anglatadi.

5. SOVRINLARNI OLISH TARTIBI VA MUDDATLARI

22. G‘oliblar yutuq haqida shaxsan yakunlarni sarhisob qilish paytida (Direct shaxsiy xabarlari orqali) xabardor qilinadi.
23. G‘oliblarni taqdirlash marosimi Aksiya tashkilotchisi tomonidan Aksiya yakunlangan kundan boshlab 2 ish kunidan kechiktirmay o‘tkaziladigan joy va vaqt haqida e’lon qilinadi.
24. Sovrinni olishda g‘olib pasporti yoki vakolatli davlat organi tomonidan berilgan shaxsini tasdiqlovchi boshqa rasmiy hujjatni taqdim etishi lozim.
25. G‘olib bo‘lgan ishtirokchi sovrinni olishda uning olinganligini tasdiqlovchi hujjatga o‘z qo‘li bilan yozuv qayd etadi: to‘liq FIO ni ko‘rsatadi va o‘z imzosini qo‘yadi, shuningdek ko‘rsatilgan hujjatning boshqa barcha zarur bandlarini to‘ldiradi. Sovrinni olgan paytdan boshlab, g‘olib bo‘lgan ishtirokchi ushbu sovrinning tasodifan yo‘q bo‘lishi yoki buzilishi xavfini o‘z zimmasiga oladi. Sovrin (yo‘llanma) faqat g‘olibning shaxsan o‘ziga beriladi, uni uchinchi shaxslarga berish qat’iyan man etiladi.

6. YAKUNIY QOIDALAR

26. Sovrinlar qiymatining puldagi ekvivalenti to‘lanmaydi.
27. Aksiya g‘olibi Sovrinni olish bilan bog‘liq barcha ma’lum va noma’lum xarajatlarni (shu jumladan dam olish maskanigacha bo‘lgan transport xarajatlarini) o‘z zimmasiga oladi.
28. Aksiyada ishtirok etish Ishtirokchilarning ushbu Tartib bilan tanishishi va to‘liq roziligini anglatadi.

29. Aksiya g‘olibi deb topilgan ishtirokchilar avtomat ravishda qo‘shimcha roziliksiz Tashkilotchiga va/yoki uning vakolatli vakiliga o‘z ismi, familiyasi, otasining ismi, fotosuratini e’lon qilish huquqini, shuningdek, reklama maqsadlarida, shu jumladan radio va televideniye uchun, shuningdek, boshqa axborot tarqatish vositalari uchun Aksiyada ishtirok etish to‘g‘risida reklama intervyusi olish huquqini, ulardan foydalanish muddati, tarqatish hududi cheklanmagan va qo‘shimcha haq to‘lanmagan holda har qanday reklama materiallarini tayyorlash uchun foto va video tasvirga olish huquqini beradi.

30. Tashkilotchi Aksiya ishtirokchilarining ushbu Tartibda belgilangan, Aksiya sovrinini olish uchun zarur bo‘lgan ma’lumotlarning noto‘g‘riligi va o‘z vaqtida taqdim etilmaganligi uchun javobgar bo‘lmaydi.

31. Aksiya g‘oliblari bo‘lgan Aksiya ishtirokchilarining Aksiya tartibini o‘z vaqtida o‘qib chiqmasligi tegishli Sovrinni olish uchun Tashkilotchiga zarur hujjatlarni taqdim etish talablari va muddatlarini buzish uchun uzrli sabab bo‘lmaydi.

32. Tashkilotchi ushbu Tartib qoidalarini buzgan, shu jumladan Aksiya sovrinlarini berish uchun zarur bo‘lgan ma’lumotlarni taqdim etish muddatlarini buzgan G‘oliblarga, shuningdek, bunday ma’lumotlarni taqdim etmagan G‘oliblarga Aksiya sovrinlarini berishni rad etish huquqini o‘zida saqlab qoladi.

33. Aksiyani o‘tkazish bilan bog‘liq barcha nizolar Tashkilotchi va Ishtirokchi o‘rtasidagi muzokaralar yo‘li bilan hal etiladi. Tinch yo‘l bilan kelishuvga erishish imkoni bo‘lmagan taqdirda, nizo O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq sudda ko‘rib chiqiladi.

34. Ushbu Tartibda nazarda tutilmagan barcha holatlarda Aksiya Tashkilotchisi va Ishtirokchilari O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga amal qiladilar.

35. Ushbu Nizom O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlari talablariga biron-bir tarzda zid bo‘lgan taqdirda, ushbu Nizomga nisbatan ustuvor bo‘lgan qonun hujjatlari me’yorlari qo‘llaniladi.

36. Nizom buyruq bilan tasdiqlanadi va amalga kiritiladi.

ПОЛОЖЕНИЕ

«О рекламной акции: Фотоконкурс по выбору имени для персонажа Chery»

3. ОБЩИЕ ПОЛОЖЕНИЯ

13. Наименование акции: «Фотоконкурс по выбору имени для персонажа Chery» далее по тексту «Акция».
14. Акция не является стимулирующей лотереей, участие в ней не связано с внесением платы Участниками и не основано на риске, на данную Акцию не распространяются нормы, прописанные в ст. ст. 983, 984 Гражданского Кодекса РУз, а также не распространяется порядок, предусмотренный Положением о порядке организации и проведения лотерей, утвержденным Постановлением Кабинета Министров РУз от 15.11.2002 г, N 396.
15. Процедура проведения Акции не связана с внесением участниками Акции платы, а призовой фонд Акции формируется исключительно за счет средств ООО «ROODELL» (далее - Организатор).
16. Участник Акции - дееспособное физическое лицо, достигшее 18-летнего возраста, являющееся резидентом Республики Узбекистан, совершивший необходимые действия, указанные в настоящем Порядке (далее – Участник). К участию не допускаются сотрудники Организатора, официальных дилерских центров Chery, рекламных агентств, задействованных в проведении Акции, а также члены их семей.
17. Участие в акции не является обязательным, и носит добровольный характер.
18. Организатор акции: ООО «ROODELL».
19. Реквизиты Организатора: Адрес: г. Ташкент, Сергелийский район, ул. Янги Сергели, дом 7. р/с: 20208000204976017001 в Головном офисе АО "Асакабанк", МФО: 00873, ИНН: 207 151 159, Регистрационный код плательщика НДС: 326070022593, ОКЭД: 45111.
20. Территория проведения Акции: ТРЦ Tashkent City Mall, Республика Узбекистан.
21. Период проведения Акции (публикация работ): с 17 ноября 2026 г. по 16 декабря 2026 г.
22. Дата подведения итогов (определения победителей): 18 декабря 2026 г.
23. Дата торжественного вручения призов: до 25 декабря 2026 г.
24. Организатор оставляет за собой право вносить изменения в условия Акции с обязательным опубликованием таких изменений способом, указанным в условиях настоящего порядка.

4. ПРИЗОВОЙ ФОНД АКЦИИ

13. Призовой фонд Акции: 3 (три) путевки в загородную зону отдыха Green hills resort (каждая путевка рассчитана на размещение компании/семьи до 4-х человек), которые будут распределены по 3 (трем) номинациям: «Самый тёплый семейный кадр», «Самое оригинальное имя для котика», «Самое весёлое фото».
14. Ответственность Организатора относительно выдачи призов ограничена исключительно вышеназванным количеством призов.
15. Организатор имеет право изменить/расширить перечень Призов.

3. УСЛОВИЯ И ПОРЯДОК ПРОВЕДЕНИЯ АКЦИИ

16. Чтобы стать Участником Акции необходимо:

16.1. Быть подписанным на официальный аккаунт Организатора @cheryuzbekistan в

Instagram.
16.2. Сделать креативную совместную фотографию (с семьей или друзьями) у специальной экспозиции Chery в ТРЦ Tashkent City Mall. В кадре обязательно должны присутствовать: Участник (и/или его близкие), коти Chery и автомобиль Chery.
16.3. Опубликовать данную фотографию в ленте своего личного открытого Instagram-аккаунта.
16.4. В описании к публикации предложить оригинальное имя для котика Chery.
16.5. Добавить в публикацию активную отметку @cheryuzbekistan и хэштег #withCherywithLove.
16.6: «Сохранять профиль открытым и не удалять конкурсную публикацию до официального подведения итогов Акции.»
17. Контроль над выполнением всех условий Участниками Акции осуществляется рабочей группой, создаваемой согласно приказу генерального директора ООО «ROODELL» из числа работников.
18. Информация о времени и месте подведения итогов по Акции будет публиковаться согласно настоящего Порядка.
19. Каждый Участник самостоятельно, удобным для себя способом ознакамливается с информацией касательно условий Акции, списка Участников Акции, места и времени подведения итогов.

7. ПОРЯДОК ОПРЕДЕЛЕНИЯ ПОБЕДИТЕЛЕЙ АКЦИИ

20. Определение победителей проводится жюри Организатора (состав которого утверждается внутренним приказом) только среди Участников, кто в течение срока проведения акции выполнил условия, указанные в настоящем Положении. Победители определяются по креативности предложенного имени и соответствию тематике (радость, семья, дружба).
21. Факт участия в акции подразумевает, что все участники соглашаются с настоящими условиями, а также с тем, что их имена, фамилии, фотографии могут быть использованы Организатором в рекламных целях, в том числе при публикации в СМИ, без уплаты вознаграждения.

8. ПОРЯДОК И СРОКИ ПОЛУЧЕНИЯ ПРИЗОВ

22. Победители информируются о выигрыше лично в момент подведения итогов (через личные сообщения Direct).

23. Награждение победителей проводится на церемонии награждения, о месте и времени проведения, которой организатор Акции объявляет в срок не позднее 2 рабочих дней со дня завершения Акции.

24. При получении приза победителю необходимо предъявить паспорт либо иной официальный документ, удостоверяющий личность, выданный уполномоченным государственным органом.

25. При получении приза выигравший участник собственноручно делает отметку на документе, подтверждающим его получение: указывает полностью Ф.И.О. и ставит свою подпись, также заполняет все иные необходимые графы указанного документа. С момента получения приза выигравший участник несет риск случайной гибели или порчи этого приза. Приз (путевка) предоставляется исключительно лично победителю, передавать его третьим лицам строго запрещено.

9. ЗАКЛЮЧИТЕЛЬНЫЕ ПОЛОЖЕНИЯ

26. Выплата денежного эквивалента стоимости призов не производится.

27. Победитель Акции берет на себя все явные и неявные расходы, связанные с получением Приза (в том числе транспортные расходы до зоны отдыха).

28. Участие в Акции подразумевает ознакомление и полное согласие Участников с настоящим Порядком.

29. Участники, признанные победителями Акции, автоматически без дополнительного согласия предоставляют Организатору и/или его уполномоченному представителю право на обнародование его имени, фамилии, отчества, фотографии, а также право на рекламное интервью об участии в Акции в рекламных целях, в том числе для радио и телевидения, равно как для иных средств распространения информации, право на фото- и видеосъемку для изготовления любых рекламных материалов без ограничения срока их использования, территории распространения и без выплаты дополнительного вознаграждения.

30. Организатор не несет ответственность за недостоверность и несвоевременность предоставленной Участниками Акции информации, установленной настоящим Порядком, необходимой для получения приза Акции.

31. Несвоевременное прочтение Порядка Акции Участниками Акции, ставшими Победителями Акции, не является уважительной причиной для нарушения требований и сроков предоставления Организатору необходимой документов для получения соответствующего Приза.

32. Организатор оставляет за собой право отказать в выдаче Призов Акции Победителям, нарушившим положения настоящего Порядка, в том числе нарушившим сроки предоставления информации, необходимой для выдачи Призов Акции, равно как и Победителям, не предоставившим такую информацию.

33. Все споры, связанные с проведением Акции, решаются путем переговоров между Организатором и Участником. В случае невозможности прийти к согласию мирным путем, спор подлежит рассмотрению в суде согласно действующему законодательству Республики Узбекистан.

34. Во всем, что не предусмотрено настоящим Порядком, Организатор и Участники Акции руководствуются действующим законодательством Республики Узбекистан.

35. В случае какого-либо противоречия настоящего Положения требованиям действующего законодательства Республики Узбекистан, применяются нормы законодательства, которые имеют приоритет над настоящим Положением.

36. Положение утверждается и вводится в действие приказом.